

BOSHQARUV SOXASI IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR TAHLILI**Olimov Saydullo Soxobjonovich**

Qo‘qon Universiteti Ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi

sayd.olim.soxobjon55@mail.com

Annotatsiya: Boshqaruv muammosini o‘rganishning ahamiyati shundaki katta davlatni boshqarishdan tortib jamiyatning eng kichik bo‘g‘ini oilagacha ta‘sir ostida bo‘ladi. Insoniyatning bu faoliyat bo‘yicha bir necha asrlik tajribasi mavjud bo‘lsa ham zamon o‘zgarishi bilan unga talabning o‘zgarishi ham tabiiydir.

Kalit so‘zlar: boshqaruv, xarizmatik nazariya, inson kapitali, yetakchilik san‘ati, yetakchilik, ekspluatatsiya.

Kirish.

Boshqaruv faoliyati va boshqaruvchilarning psixologik xususiyatlarini o‘rganish muammosini ko‘hna va navqironidir. Insoniyatni individual va guruhshakilda boshqarish inson omilidan unumli, oqilona va omilkorona foydalanishni o‘rganishga bo‘lgan e‘tibor xar qachongidan ham ortgan. Dunyoda axolining jadal sur‘atlarda o‘sib borishi natijasida iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ekologik va etnik muammolarni yuzaga kelishiga olib kelishi xavotiri paydo bo‘lishi aniqlanmoqda.

Mamlakatimiz miqyosida ham ushbu muammoga davlat ahamiyati darajasida doimiy e‘tibor berib kelinmoqda. Boshqaruv masalasiga tarixiy qadriyatlarimiz, davlat boshqaruv borasidagi tajribamiz, xalqimizning o‘ziga xos qirralarini xisobga olgan holda jamiyatning eng kichik bo‘g‘inlarigacha strategik yondashuv olib borilmoqda. Kuchli fuqarolik jamiyatini shakillantirishning barcha institutlari faol faoliyat yuritmoqda. “Yangi O‘zbekistonni barpo etish – bu shunchaki xohish-istak, subyektiv hodisa emas, balki tub tarixiy asoslarga ega bo‘lgan, mamlakatimizdagi mavjud siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma‘naviy-ma‘rifiy vaziyatning o‘zi taqazo etayotgan, xalqimizning asriy orzu-intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to‘la javob beradigan obyektiv zaruratdir”[1.b-3].

Adabiyotlar thlili va metodlar.

“Bosqaruv” muammosi bilan falsafa, sotsiologiya, pedagogika va psixologiya fanlari kesimida tadqiqot ishlari olib boriladi. Har bir soha vakillari bu muammoga o‘z mutaxassisligi doirasida yondashadilar. Biz bu muammoning psixologik xususiyatlarini taqiqot qilsh masalasi ko‘rmoqdamiz. Boshqaruvga oid adabiyotlarda “Boshqaruv” termini uchta pozitsiyada ko‘rib chiqiladi.

Birinchiga ko‘ra ; “*Boshqaruv - faoliyat sifatida belgilanadi*” (Y.Kxol, V.S.Lazarev, L.I. Suvorov, G.X.Popov, M.M.Potashnik). Demak, oz vaqtida A.Faylov boshqaruv jarayonini tashkilot maqsadlarini amalga oshirish faoliyati sifatida ko‘rib chiqdi. Shunga o‘xshash ta‘rif va tushuncha, “Boshqaruv” maktabni boshqarish, lekin unda belgilangan belgilar unga xos faoliyat funksional tarkib(rejalashtirish, tashkillash, nazorat va boshqaruv), maqsadni tayinlash (ta‘lim jarayoni ishtirokchilarini qo‘shma tashkillash va ta‘lim maqsadlarini uning yutuqlariga va maktabni rivojlantirish) va shaxs faoliyati.V.S.Lazerov.

Ikkinchi pozitsiyaga ko‘ra boshqaruv *bir tizimning boshqasiga, bir kishi boshqasiga yoki guruhga “ta’sir”* sifatida qaraladi (V.G.Afanasev, L.B.Itelson, O.V.Kozlova, M.Maykov, A.A.Orlov, N.S.Sunsov, N.D.Xmel, A.V.Filipov). Ushbu pozitsiya tarafdorlari uchun boshqaruv sub’ektning ob’ektga maqsadli ta’siri va bu ta’sir natijasida uning o‘zgarishi yoki maqsadli ta’sir natijasida sub’ektning o‘zgarishiga olib keladi. Boshqaruvga bunday yondashuv bilan “sub’ekt-sub’ekt tabiati” juda kam hisobga olinadi. Chunki faoliyat faqat boshqaruvchi uchun tan olinadi. Ushbu holatda boshqariladigan shaxs faol emas ijrochi sifatida qabul qilinib u qat’iy o‘rnatilgan me‘yorlarga rioya qiluvchi sifatida qabul qilinadi.

Uchinchi pozitsiya tarafdorlari *subyektlarning ozaro ta’sirini* boshqaruv deb tushunishadi. (A.T.Abramov, V.G.Afanasyev, P.I.Tretyakov, T.K.Chekmareva, T.I. Shamova, D.V.Yudin, v.b.). Falsafada o‘zaro ta’sir deganda tomonlarning o‘zgarishi nafaqat o‘zaro bog‘liqlik, balki o‘zaro bog‘liq holda sodir bo‘ladigan murakkab, xilma-xil jarayon tushuniladi. (A.N.Averyanov, N.I.Ibankova). Uning mohiyati to‘g‘ridan-to‘g‘ri va teskari ta’sirlarning ajralmasligida, bir-biriga ta’sir qiluvchi o‘zgarishlarning organik birikmasida yotadi. Bundan tashqari o‘zaro ta’sir yaxlit, ichki farqlanlgan, o‘z-o‘zidan rivojlanadigan tizimdir. (A.I.Uyemov, B.M.Kedrov v. b). Boshqaruvning mohiyati bo‘lgan o‘zaro ta’sirini bunday tushunish boshqaruvchilar va boshqariluvchilarning o‘zaro o‘zgarishini o‘z ichiga oladi [6.b-8].

Ushbu keltirilgan pozitsiyalar bir-biridan farqi ba‘zan juda ham yaqqol darajada ba‘zan esa bilinar-bilinmas darajada kichadi. Vaqti-vaqti bilan bu uchala pozitsiya biri o‘rniga boshqasi almashinish ham kuzatiladi. Bu holat yuzaga kelishida eng yuqori mavqeda turgan shaxsni pozitsiyasi hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Masalan bir turdagi ellikta maktab barchasi asosan birinchi pozitsiya bo‘yicha faoliyat yuritadi, lekin har biri bilan ichiga kirib chuqur tanishsangiz farqlarni aniqlaysiz. Ayniqsa, bu bizning mentalitetimizda yaqqol kuzatish mumkin.

Boshqaruv—bu raqobat, ya’ni ko‘pchilikni o‘z qarashlari to‘g‘riligiga ishonirish va boshqalarni ergashtirish. Boshqaruv muammosini o‘rganish juda ko‘xna tarixga ega.

Odamsotning **mayli** nixoyatda o‘zgaruvchanligini aytib o‘tish lozim. Ularni o‘z e’tiqodiga o‘tkazish oson bo‘lishi mumkin-u, ushlab turish juda qiyin. Shuning uchun odamlarda ishonch tugagan paytda kuch bilan qayta ishonirishga hamisha tayyor turish kerak [4]. [makiavelle **kuch ishlatishni maslaxat bermoqda**].

Al-Buxoriy 2-kitob 491-hadisida: Podishoxlar Allohning yerdagi soyalaridir,- deb ta’kidlaydi [2]. **Ya’ni ular aloxida xususiyat va fazilatlariga ega shaxslar ekani va ularga itoatkorlikka, ularning xukmini taqdir sifatida qabul qilishga da’vat etilmoqda.**

Hayoti davomida yuksak maqomli lavozimlarni egallab kelgan odamlarga xos qandaydir bir “yuksaklik” sifati to‘g‘risidagi tasavvur “yuksak odam” to‘g‘risidagi tasavvurga o‘zgartirildi va keyinchalik F.Kayleyl tomonidan ishlab chiqilgan “Yuksak Odam Nazariyasi” sifatida rivojlantirildi. Bunda lider bo‘ladigan odamlar azaldan ularga liderlik pozitsiyasini egallashga yordam beradi - gan ma’lum bir sifatlar yig‘indisiga ega bo‘ladilar, deb hisoblangan.

“Yuksak Odam Nazariyasi” mos ravishda siyosiy liderlarga xos bo‘lgan xarizma (grekcha-Xudodan berilgan) to‘g‘risida tasavvur rivojlana bordi. Birinchi bo‘lib “xarizmatik xokimiyat” tushunchasi XIX asr oxiri XX asr boshlarida M.Veber tomonidan taklif etiladi. M.Veber fikricha, xarizma deb shaxsning g‘ayrioddiy deb tan olinadigan xususiyatini aytilish mumkin bo‘lib, u tufayli

shaxs boshqalar erisha olmaydigan, g‘ayritabiiy, aql bovar qilmaydigan, juda bo‘lmaganda maxsus aloxida kuchlar va xususiyatlarga ega iqtidorli odam sifatida tan olinadi [3., 5.].

Inson kapitali g‘oyasining ommalashuviga asosiy ulush qo‘shgan T.Shul’ts (Schultz T. Investment in Human Capital.-N.Y. 1971)[9] bo‘lishiga qaramasdan, G.Bekkerning “Insoniy kapital” nomli kitobi zamonaviy iqtisodiy fikrning mumtoz asariga aylandi [8].

“Xech kim yetakchilikni o‘rgana olmaydi va biz buni o‘rgatish mumkinligiga ishonmaymiz, yetakchilik san‘ati amerika psixologi D.Boyd tomonidan takidlangan. Boshqaruv san‘ati tashqaridan o‘rganish mumkin bo‘lmagan narsadir, bu sizning yuragingizdan va kuchingizdan keladi” [7].

O‘zbek yozuvchilaridan Razzoqov “Boshqaruv” faoliyatini san‘at deb fikrlovchilar qatoriga kiritsak bo‘ladi.

Munozara va natijalar.

Yuqorida “Boshqaruv” muammosini o‘rganish turlicha pozitsiyalardan turib talqin etilishini ko‘rib chiqdik. Xar bir pozitsiyani tarafdor olimlari o‘ziga yarasha. Ular ushbu pozitsiyani qanchadir ma’noda tadqiq etib ko‘rishgan.

Boshqaruvga oid ko‘rsatilgan pozitsiyalarni ba‘zan aniq chegarasi amalda ko‘rinmay qolishi ham mukinmi? Ushbu ko‘rsatilgan pozitsiyalar tarkibiga kiruvchi shaxsda tajriba ortishi bilan o‘zgarishi kuzatiladimi?

Boshqaruvni faoliyat sifatida qabul qiluvchi boshliq bu faoliyatda shaxsiy rivojlanishga iyytiyoq qaysi qutibga yo‘nalishi mumkin. U boshqaruv faoliyatiga ruhan bog‘lanib qolishlik, vaqti soati kelganda bu o‘rindan tushishi unga ham ruhan ham jismonan salbiy ta’sir etmaydimikan.

Xozirgi kunda “Xarizmatik” nazariya va “Inson omili” nazariyasi o‘rtasida qizg‘in baxs ketmoqda. Xarizmatik nazariya tarafdorlari asosan boshqaruvchilarni aloxida boshqaruvchilarga xos tug‘ma turli qobiliyatlar va xususiyatlar mavjudligini isbotlashga intiluvchilardir. Ular asosan rahbarlarni,ular tomonidan xar qanday kuch ishlatilgan taqdirda ham ularni ulug‘lab, ularga bo‘ysunishlik ta’kidlanadi.

Inson omili nazariyasi tarafdorlari esa insonga ikkinchi sort sifatida qaramasdan munosabat bildirish, yaxshi sharoitlar bilan ta‘minlash natijada turli ijobiy rivojlanishga erishish ta’kidlanmoqda. Ushbu nazariya tarafdorlari tadqiqotlari asosida “boshqaruv san‘at” degan g‘oyalar paydo bo‘lishiga turtki bo‘ldi.

Xulosa.

Asrlar davomida inson insonni ho‘rlab ekspluatatsiya qilib keldi. Dunyo olimlarining olib borgan izlanishlari natijasida ilm-fan, texnika, boshqaruv soxasidagi yangiliklar ro‘y berdi. Boshqaruvga oid bestseller adabiyotlar paydo bo‘ldi. Ularning barchasini negizida inson omilini kashf etishga qaratilgan turli texnikalar takidlanmoqda. Bunda albatta insonlarning individual psixologik xususiyatlarni ham inobatga olib yondashuv masalasi ko‘tarilgan. Boshqaruv faoliyati insoniyat ongining o‘sib borishi bilan parallel holda rivojlanib borishi talabi ortib bormoqda. Insonlardagi soddalik xususiyati o‘tmishga aylanib qoldi. Bugun liderlardan jamoani jipsligi va uyushganligini taminlashning yangidan yangi boshqaruv texnikalarini o‘rganish va amaliyotda foydalanish davr talabi bo‘lib qoldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шавкат Мирзиёев Миромонович. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тўлдирилган иккинчи нашир.- Тошкент: “O‘zbekiston” нашриёти, 2023. -440 б.
2. Ал-Бухорий Абу Абдуллоҳ Мухаммад ибн Исмоил.Хадис: 4 китоб,02-хадис-1001-хадис-491.Ал-Жомий ас-Саҳиҳ(ишонарли тўплам)//араб. 3.Исмо –ил тарж.-Тошкент: Қомуслар, 1992- 560 б.
3. Вебер М. Избранные произведения. М., 1990 ..,
4. Макиавелли Никкола . Ҳукумдор. Зоҳир Аълам таржимаси.”Жаҳон адабиёти” журнали ,2002 йил, 9-сон. ziyouuz.uz
5. Махмудов Азамжон Мухтарович. Ёш раҳбарларда бошланғич бошқарув кўникмалари шаклланиб боришининг ижтимоий-психологик хусусиятлари (харбий ва харбий бўлмаганлар мисолида). Психол. Фан.бўй.фалса.док(PhD) дисс. Тошкен. 2020].
6. Назмутдинов В.Я.,Ярулин И.Ф. Управленческая деятельность и менеджмент в системе образования личности.-Казань:ТРИ “Школа”, 2013.-360 с..b-8
7. Урбанович А.А. Психология управления: Учебное пособие.— Мн.: Харвест, 2003. — 640 с.— (Библиотека практической психологии)
8. Becker G. Human Capital: A Theoretcal and Empirical Analiysis.-N.Y.1994)
9. Schultz T. Investment in Human Capital.-N.Y. 1971
10. Olimov S.S. TALABALARDA BOSHQARUV FAOLIYATINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Magistirlik dissertatsiyasi.
11. Soxobjonovich, Olimov Saydullo. "TALABALARDA BOSHQARUV FAOLIYATINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA ISTIQBOLLARI." Analysis of International Sciences 2.2 (2024): 51-57.
12. Soxobjonovich, O. S. (2024). FAVQULOTDA VAZIYATLARDA FUQAROLARNI BOSHQARISH VA BIRINCHI PSIXOLIGIK YORDAM. Analysis of International Sciences, 2(1), 111-115.
13. Olimov S.S.(2023) BOSHQARUV MUAMMOSINI O‘RGANISHNING ZAMONAVIY TALABLARI. Educational Research in Universal Sciences,2(12), 245-248. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5514>
14. Olimov S.S. (2023) Talabalarda boshqaruv faoliyatining psixologik xususiyatlari. ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИННОВАЦИЯ, ФАН ВА ТАЪЛИМ 10-ҚИСМ. 19-20.
15. Komiljonova, G. N. qizi. (2023). FANLARARO BOG‘LANISH ASOSIDA BOSHLANG‘ICH TA‘LIMNI AMALGA OSHIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 198–201. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5505>
16. Mirzaliyevna, S. Z. (2023). BOSHLANG ‘ICH SINFLARDA MULTIMEDIALAR ASOSIDA DARSLARNI TASHKIL ETISH. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 519-521.
17. Mirzaliyevna, S. Z. (2023). BOSHLANG ‘ICH SINF O ‘QUVCHILARINI IJODKORLIKKA O ‘RGATISHDA XORIJIIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH METODIKASI (O ‘QISH VA ONA TILI O

‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARI MISOLIDA’. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(6), 598-603.

18. Nargiza, V. (2023). TARBIYA JARAYONIDA OILA MAHALLA HAMDA TA'LIM MUASSASALARINING O'ZARO HAMKORLIGI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 637-639.

19. Xatambojevna, A. S. (2023). MAKTABGACHA TA 'LIM TASHKILOTLARIDA TARBIYALANAYOTGAN 6-7 YOSHLI BOLALARNI IJTIMOY-HISSIY RIVOJLANISHINING SHART-SHAROITLARI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(17), 344-350.

20. Xursanov, O. (2023). TALABALARNI HAMKORLIK TEXNOLOGIYASI ASOSIDA O'QUV - MA'NAVIY MOSLASHUVCHANLIK IMKONIYATLARINI OSHIRISH TEXNOLOGIYASI (1 - KURS TALABALARI MISOLIDA). Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 264–269. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/551>

21. Raximjonovna, U. N. (2023). O 'SMIR YOSHIDAGI O 'QUVCHILARDA "TARBIYA" FANINI O 'QITISH ORQALI MUSTAQIL FIKRLASHGA O 'RGATISH. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(6), 232-237.

22. ST Davlatova, FS qizi Abdullayeva BOLALARNING MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYASIGA OID OTA-ONALARNING QARASHLARI Educational Research in Universal Sciences 2 (16), 819-823

23. Maxmudova Zilola. (2023). TALIM MUASSASI RAHBARLARIDA YUKSAK AXLOQIY SIFATLARI RIVOJLANTIRISH. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 1(2), 78–83. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/17>

24. Toxirjon, U. (2024). PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIRNI O'RGANISH. *Integration of Economy and Education in the 21st century*, 2(2), 22-27.

25. Umarov Tokhirjon. (2024). PROVISION OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN EXTREME SITUATIONS IS SOCIAL. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 2(2), 1–6. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/28>

26. В статье представлена информация о роли педагогики и психологии в повышении качества и эффективности образования, формировании зрелого поколения. Данное научное исследование исследует решающую роль симбиотических взаимоотношений педагогики и психологии в . (2024). YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(2), 5-12. <https://nuzjournals.uz/index.php/yoiit/article/view/79>